



THE ROLE OF THE HOHENSTAUFEN DYNASTY IN THE HISTORY OF THE HOLY ROMAN EMPIRE

To'lg'anoy Qarshiyeva¹

M.M Xoshimova²

Samarkand State University

DOI: 10.5281/zenodo.15486584

Article History	Abstract
Received: 10.04.2025 Accepted: 22.05.2025	This article provides information about the Hohenstaufen dynasty, the most powerful dynasty during the Holy Roman Empire, Frederick I Barbarossa and his descendants, the relationship between Frederick I Barbarossa and Pope Alexander III, the Third and Sixth Crusades, Henry VI's marriage to Queen Constance of Sicily, the causes of the century-long war with the Welfs, and the accession of Frederick II to the throne.

Keywords: Frederick I Barbarossa, Welfs, living law on Earth, Conrad III, Wonder of the World, University of Naples, III and VI Crusades.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student, Faculty of History, Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

² Associate Professor of the Department of World History, Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

MUQADDAS RIM IMPERIYASI TARIXIDA GOGENSHTAUFINLAR SULOLASINING TUTGAN O'RNINI

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Firidirix I Barbarossa, Velflar, Yerdagi jonli qonun, Jahon hayrati, Neapol universiteti, III va VI salb yurishlari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada Muqaddas rim imperiyasida eng qudratli sulola bo'lgan Gogenshtaufenlar sulolasi, Firidirix I Barbarossa va uning avlodlari, Firidirix I Barbarossa va papa Aleksandr III munosabatlari, III va VI salb yurishlari, Genrix VI ning sitsiliya malikasi konstansiya bilan nikohi, Velflar bilan bir asrlik urishlarining kelib chiqishi sabablari, Firidirix II ning taxtga o'tirishi haqida ma'lumot beriladi.

Ilk o'rta asrlardagi siyosiy vaziyatlar cherkov ta'sirining kuchayishi natijasida german imparatorlari bilan rim papalarining kuchli ziddiyatlari va buning salbiy oqibatlari natijasida 1125-yilda Genrix V ning o'limidan so'ng gersoglar uning yaqin qarindoshlarini emas, balki o'rta darajada kuchli, ammo allaqachon keksaygan Saksoniya gersogi Lotarni tanladilar. U 1137-yilda vafot etganida, gersoglar yana yangi qirol tayinlashdi. Ular Shtaufenlar oilasidan imperator Genrix IV ning nabirasi Konrad III ni qirol etib saylashdi. Shtaufenlarning hokimiyta tepasiga kelishi Velflar bilan bir asrlik janjal keltirib chiqardi. Konrad Velflarni o'z mulklaridan quvib chiqardi, ammo 1152-yilda vafotidan keyin jiyani Fridrix I „Barbarossa“ uning o'rnini egalladi va Velflar bilan sulh tuzadi. Firidirix I Barbarossa siyosiy tarqoqlik davrida hukumat tepasiga keladi. Fridrix I ning siyosati birinchi navbatda Italiyaga qaratilgan bo'lib, u shimolning tobora badavlat va erkin shaharlari, ayniqsa Milan bilan to'qnash keldi. U shuningdek, Papa Aleksandr III (1159—1181-yillar) bilan ziddiyatga boradi. Natijada o'z davring kuchli imparatori bo'lgan firidirix I Barbarossa papaga tiz chukib uni maydon bo'ylab otda aylantiradi va Fridrix I 1177-yilda Aleksandr III bilan nihoyat sulh tuzishgacha bir qator antipapalarni qo'llab-quvvatladi, lekin papa Firidirix I Barbarossani III-salb yurishlariga yuboradi usha yerda 1190-yilda Fridrix I Uchinchi Salib yurishida qatnashib, Kilikiya Armaniston Qirolligida vafot etadi. Shtaufenlar davrida nemis knyazlari g'arbiy slavyanlar yashamaydigan yoki kam yashaydigan erlarni muvaffaqiyatli, tinch yo'l bilan sharqqa joylashtirishga yordam berishdi. Imperiyaning g'arbiy qismidan nemis tilida so'zlashuvchi dehqonlar, savdogarlar va hunarmandlar, ham nasroniylar, ham yahudiylar bu hududlarga ko'chib kelishgan

Bu yerlarning asta-sekin nemislashuvi murakkab hodisa bo'lib, uni XIX asr millatchiligining noxolis atamalarida talqin qilmaslik kerak. Sharqqa joylashish imperiyaning ta'sirini kuchaytirish shuningdek, mahalliy slavyan hukmdorlari bilan nikohlar orqali munosabtlarni normallashtiradi. Fridrix I Barbarossaning o'g'li va vorisi Genrix VI davrida Shtaufenlar sulolasi o'zining eng cho'qqisiga chiqdi. Genrix VI sitsiliya malikasi konstansiyaga uylanadi va Genrix VI Sitsiliyaning Norman qirolligini o'z hududlariga qo'shib oldi, ingliz qirol Richard Sheryuraknini asirlikda ushlab turdi. Fridrix Barbarossa vafotidan so'ng kenja o'g'li Shvabiyalik Filipp va toj uchun kurashgan Genrix

Arslonning Brunsviklik o'g'li Otton ikki tomonlama saylandi. 1208-yilda Filipp janjalda o'ldirilganidan so'ng, Otton yakka hukmdorga aylandi. Firidirix I ning taxtga kelishi Velflar bilan bo'lgan mojarolarni kuchaytirib yubordi, Firidirix I Barbarossa Baloniyadan huquqshunoslar chaqirtiradi va "Yerdagi jonli qonunni" tuzdiradi. Rim papasi Klement III Barbarossaning o'g'li Genrixni imperator sifatida taxtga o'tkazishga va'da berdi.[1 p. 81]. 1189 yilda nemis armiyasi Quddusga yurish qildi. Uchinchi salib yurishi oldingisiga qaraganda ancha yaxshi tayyorlangan, Barbarossadan tashqari, ingliz qiroli Richard Lionheart va frantsuz qiroli Filipp II Avgust o'z qo'shinlari bilan Quddusni ozod qilish uchun ketishdi. Firidirix I Barbarossa sayoz daryoga cho'kib vafot etadi. Firidirix I Barbarossa vafotidan keyin uni 18 yoshli nabirasi Firidirix germaniyaga yurish qilgan va Ottonni mag'lub etgan Fridrix II ni qo'llab-quvvatladi.

G'alabasidan so'ng, Fridrix ikki hududni alohida saqlash haqidagi va'dasiga amal qilmadi. Garchi u Germaniyaga yurishdan oldin o'g'li Genrixni Sitsiliya qiroli etib tayinlagan bo'lsa ham, u hali ham haqiqiy siyosiy hokimiyatni o'zi uchun saqlab qolgandi. Bu jarayon Fridrix II 1220-yilda imperator taxtiga o'tirgandan keyin ham davom etdi, Fridrix II ning kuchini oshishidan qo'rqib, Rim papasi uni quvg'in qildi va V-salb yurishiga yubormoqchi edi, lekin Firidirix rozi bo'lmadi orqaga surib yurdi, chunki bobosining taqdiri qaytarilmasligini xohlardi. Yana bir munozarali nuqta Fridrix va'da qilgan, lekin qayta-qayta keyinga qoldirgan Salib yurishi edi, Keyinchalik, quvg'in qilingan bo'lsa-da, Fridrix 1228-yilda Oltinchi Salib yurishiga rahbarlik qildi, bu jarayon Quddus Qirolligini vaqtincha tiklash bilan yakunlandi. Uning imperatorlik da'volariga qaramay, Fridrixning hukmronligi imperiyada markaziy boshqaruvning parchalanishining asosiy burilish nuqtasi bo'ldi. Sitsiliyada zamonaviy, markazlashgan davlatni barpo etishga e'tibor qaratgan bo'lsa-da, u asosan Germaniyada bo'lmagan va Germaniyaning dunyoviy va cherkov knyazlariga keng ko'lamli imtiyozlar, 1220-yilda yepiskoplar tayinlash, qonun o'rnatish, tanga zarb qilishlarni bergan. Fridrixning o'zi arab va yunon tillarini bilgan, lotin va italyan tillarida ijod qilgan. Uning Palermodagi saroyi arab xalifalarining saroylarini eslatar edi. Imperator Sharq musiqasi, raqslari, Sharq adabiyoti va she'riyati, Sharq me'morchiligining muxlisi bo'lgan. Sharq hukmdorlarining ayrimlari bilan do'st tutingan. Imperator mamlakat bo'ylab harakatlanganida uni jangchilar va filbonlar o'tirgan fillar kuzatib borgan. Fillar ortidan tuyalar, yo'lbarslar, sherlar, qoplonlar yetaklab yurilgan. Fuqarolarda bu jarayon kuchli taassurot qoldirgan. Fridrix II devonxonasida lotin tilining nozik jihatlaridan foydalanib, maktublar, hujjatlar bitilganki, unga butun Yevropa taqlid qilgan. Fridrix II yozgan «Qushlar bilan ov qilish» asari uning bu sohadan yaxshi xabardorligidan darak beradi; asar hozirgacha saqlanib qolgan. Imperator qator maktablar va Neapol universiteti asoschisidir. U cherkov yoki shahar kengashi emas, hukmdor tomonidan tashkil etilgan birinchi universitet bo'lgan. Zamondoshlari Fridrix II ni (Jahon hayrati deb atashgan). [2p — 36-bet.] Firidirix II o'z davrining buyuk impratori bo'lgan u vafot etgandan so'ng papa bu sulolani a'zolarini qirishga buyruq beradi. Fridrix II ning vafotidan so'ng papalar tarafdorlari shtaufenlar sulolasining vakillarini taxtdan chetlatishga intilishgan.

Germaniyada yigirma yil davomida umuman imperator saylanmaydi. Knyazlar 1273-yilda to'planib Rudolf Gabsburgni taxtga o'tqazadilar. Ammo Gabsburglarning dastlabki boshqaruvi uzoq davom etmagan Lyuksemburglar sulolasiga qarshi kurash olib boradi. Gabsburglarning 369 yillik imperatorlik davri faqat 1437-yildan boshlanadi. Germaniyada Saksoniyaliklar, Frankoniya, Shtaufenlar, Lyuksemburglar, Gabsburglar sulolalari hukmronlik qilgan. 1158-yilda Ronkal vodiysida chaqirilgan seym (kengash) imperatorning Italiyadagi hokimiyatini cheklanmagan deb e'tirof etadi. Fridrix I ning Bolonyadan taklif etgan eng bilimdon huquqshunoslari uning xizmatiga kirib, qonunlar majmualarini tuzib beradilar.

Fridrix I «yerdagi jonli qonun» deb e'tirof etiladi. Mavjud vaziyatda Milan boshchiligida Lombardiya shaharlari bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonni bostirish davomida Milan aholisiga sakkiz kunda shaharni tashlab ketish sharti qo'yiladi. Lekin Milan XII asrning 60–70-yillarida qayta tiklanib, yangi jangga hozirlik ko'ra boshlaydi. 1176-yilda Lenyano jangida Liga qo'shini imperator ritsarlarini tor-mor qiladi. Fridrix I Shimoliy Italiya shaharlariga kommuna – erkinlik huquqini berishga majbur bo'ladi. Bu Fridrix I Barbarossa tomonidan amalga oshirilgan siyosat. Fridrix II esa bilimdon odil imprator bo'lgan bobosi kabi kuchli ham ularning ikkisi ham shtaufenlar sulolasini kuchli impratorlari hisoblanadi shunday qilib maqolamizning asosiy ma'zmuni shtaufenlarning hokimyatga kelishi va papa bilan munosabatlarini tahlil qildik Germaniyada ilk o'rta asrlarda nayinki o'rta asrlarda kuchli siyosat yuritgan impratorlar hukmronlik qilgan. [3p. 81]. Shtaufenlar davrida nemis knyazlari g'arbiy slavyanlar yashamaydigan yoki kam yashaydigan erlarni muvaffaqiyatli, tinch yo'l bilan sharqqa joylashtirishga yordam berishdi. Imperiyaning g'arbiy qismidan nemis tilida so'zlashuvchi dehqonlar, savdogarlar va hunarmandlar, ham nasroniylar, ham yahudiylar bu hududlarga ko'chib kelishgan. Bu yerlarning asta-sekin nemislashuvi murakkab hodisa bo'lib, uni XIX asr millatchiligining noxolis atamalarida talqin qilmaslik kerak. Sharqqa joylashish imperiyaning ta'sirini Pomeraniya va Sileziyani o'z ichiga olgan holda kengaytirdi, shuningdek, mahalliy slavyan hukmdorlari bilan nikohlar orqali munosabtlarni normallashtirdi.[4p.49]

Fridrix I Barbarossaning o'g'li va vorisi Shtaufenlar sulolasi o'zining eng cho'qqisiga chiqdi. Sitsiliyaning Norman qirolligini o'z hududlariga qo'shib oldi, ingliz qirol Richard Sheryuraknini asirlikda ushlab turdi Fridrix Barbarossa vafotidan so'ng kenja o'g'li Shvabiyalik Filipp va toj uchun kurashgan Genrix Arslonning Brunsviklik o'g'li Otton ikki tomonlama saylandi.[5p.74] 1208-yilda Filipp janjalda o'ldirilganidan so'ng, Otton yakka hukmdorga aylandi. Endi bu voqealarga to'xtaladigan bo'lsak bu boshida keltirilgan voqealar boshidagi voqeylikda Fridrix I Barbarossaning va Muqaddas rim imperiyasi Otton I va Otton II davrlari, Genrix V va Genrix VI davrlari bayon etilgan ayni jarayonlarda papalarning obro'yi va cherkovning ta'siri kuchli bo'lganligi uchun Muqqaddas Rim imperiyasi bo'gan. 1250-yilda Fridrix II vafotidan keyin Germaniya qirolligi uning o'g'li Konrad IV va anti-qirol Gollandiyalik Vilgelm o'rtasida bo'lingan. Konradning o'limidan

keyin Interregnum sodir bo'ldi, bu davrda hech bir qirol umume'tirofga erisha olmadi, bu esa knyazlarga o'z mulklarini mustahkamlashga va hukmdor sifatida yanada mustaqil bo'lishga imkon berdi. 1257-yildan keyin toj uchun Guelf xonadoni tomonidan qo'llab-quvvatlangan Kornuollik Richard va Shtaufenlar xonadonida tomonidan qo'llab-quvvatlangan, lekin hech qachon nemis zaminiga qadam bosmagan Kastiliyalik o'rtasida taxt uchun kurash boshland.

Bu kurashlar yakuni nima bilan tugaganligi hammaga ma'lum Gabsburglarning kelishi bilan lekin hech qaysi sulola hech qaysi imperiya uzliksiz davom etmaydi xulosa qilamizki bu tarix sivilizatsiya jarayoning bir qismi edi Muqaddas Rim imperiyasi va Gogenshtaufenlar sulolasi ular qanchalik qudratli bo'lmasin oxiri yakun topdi.[6.p.435-4]

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Hodnet, Andrew Arthur (2018). The Othering of the Landsknechte. North Carolina State University. p. 81
- 2) Curtis, Benjamin. The Habsburgs: The History of a Dynasty. Bloomsbury, 2013 — 36-bet
- 3) Berard, Christopher (2020). Archibald, Elizabeth; Johnson, David F. (eds.). Arthurian Literature XXXV. Cambridge: D.S. Brewer. p. 49.
- 4) Kenneth Onapolis (2019). The Knights Templar: The Priceless Treasure Discovered. Lulu.com. p. 74.
- 5) German Archives for Research into the Middle Ages, Vol. 33 (1977), pp. 435–472.